**O'zbekiston Respublikasi**
**Farg'ona viloyati**
**Beshariq tumani**
**«Obodonlashtirish» boshqarmasi**

**Ўзбекистон Республикаси**
**Фарғона вилояти**
**Бешариқ тумани**
**«Ободонлаштириш» бошқармаси**

**Beshariq tumani H/R:23402000300100001010, SH/R: 100022860302157065200011000Markaziy bank Toshkent XKKM, MFO 00014, INN 206994051.**

---

5«9»2022 yil. **256-11-153-OB/2022-son**

# PUDRAT SHARTNOMASI №41605

Ushbu shartnoma ***«Buyurtmachi»*** deb ataluvchi Beshariq tumani **Obodonlashtirish boshqarmasi** va uning nomidan Nizom asosida ish olib boruvchi boshqarma boshlig'i **N. Nasipov** bir tomondan va ***«Pudratchi »*** deb ataluvchi **"Uchko'prik Yangi qurilish" MCHJ** va uning nomidan Nizom asosida ish olib boruvchi raxbari I.Ortiqov ikkinchi tomondan kelishuv asosida amaldagi qonunlarga muvofiq tuzildi.

## I. SHARTNOMANING MAVZUSI

***1.1.*** ***«Pudratchi»*** mazkur shartnoma shartlariga muvofiq ***«Buyurtmachi»***ning talablaridan kelib chiqib, **"Fargona viloyati Beshariq tumani Kapayangi MFY xududida yangi suv tarmogi tortish, 2ta suv kudugi suvini chiqarib tashlash, 2 ta suv nasosi va 2ta suv minorasi o`rnatish (qiymati QQS bilan)** ishlarini shartnomaga ilova kilinuvchi smetaga muvofik amaldagi texnik shartlarga rioya kilgan holda bajarish majburiyatlari o'z zimmasiga oladi.

***1.2.*** «PUDRATCHI» tegishli proekt-smeta hujjatlariga mos xolda BUYURTMACHI» tomonidan berilgan ishlarni kelishilgan vaktda bajarish va uni kamchiliklarsiz tulik tayyor xolda o'z muddatida «BUYURTMACHI» ga topshirishni o`z zimmasiga oladi.

***1.3.*** «PUDRATCHI» ish bajarish vaktida kurilish montaj va qazish ishlari uchun ketadigan qurilish materialiga va ishchi kuchini uz xisobidan o`zi taminlaydi.

***1.4.*** «PUDRATCHI» tomonidan qilingan ishlar yakunlangandan keyin F-2, F-3 dalolatnomalarini «BUYURTMACHI» uzining mutaxasislari ishtirokida qabul qilib oladi.

## II. SHARTNOMANING BAXOSI VA XISOB KITOB TARTIBI

2.1 Xarid komissiyasining qarori bilan tasdiqlangan shartnoma buyicha bajarilishi lozim ishlar qiymati (barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarni o'z ichiga olgan xolda) joriy narxlarda narxi **430 000 000 (To'rt yuz o`ttiz million ) so'm ni tashkil etadi.**

2.2. SHartnoma tomonlar o'rtasida imzolanib, tegishli G'aznachilik bo'limida ro'yxatga olingandan so'ng 15 bank ish kunida ***«Buyurtmachi»*** bajarilishi lozim ishlar umumiy qiymatining 30 foizini oldindan ya'ni avans tariqasida ***"Pudratchi"*** ning xisob raqamiga o'tkazib beradi.

2.3. Tulov shakli «PUDRATCHI» tomonidan F-2, F-3 xujjatlarini tasdiklangandan sung solishtirma dalolatnomasi va xisob fakturaga asosan «BUYURTMACHI» «PUDRATCHI» ning xisob raqamiga tugridan tugri pul o`tkazib beradi.

2.4. Bajarilgan ishlar uchun to'lovlarning qolgan 70 foizi, ***«Pudratchi»*** tomonidan topshirilgan xisob-varaq fakturalar asosida 30 bank ish kunida o'tkazib beradi.

2.5. Bajarilgan ishlar uchun to'lovlar ***«Buyurtmachi»*** tomonidan pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

## III. TOMONLARNING XUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. ***«Pudratchi»***ning majburiyatlari

O`z kuchi texnika vositasi bilan kalendar ish rejasida nazarda tutilgan barcha ishlarni tula xajmda va muddatda bajarishi va tegishli loyixa xujjatlaridagi xolatda ishlarni «BUYURTMACHI» ga meyoriy xujjatlar talabiga va qoidalar asosida topshirishi

Mazkur shartnomaga muvofiq avans to'lovi amalga oshirilgandan boshlab 10 kun muddat ichida mazkur shartnomada nazarda tutilgan ishlarni bajarishga kirishadi.

Barcha ishlarni buyurtmachi talablariga muvofiq, mazkur shartnomada nazarda tutilgan xajmda va muddatlarda o'zining kuchlari bilan bajarishi hamda ***«Buyurtmachi»***ga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshiradi.

3.2. ***«Pudratchi»***ning xuquqlari

Bajariluvchi ishlar uchun oldindan avans xaq to'lanishini va ishni bajarib topshirgandan so'ng to'la xajmda xisob kitob qilinishini talab qilish;

Bajarilgan ishlarni kabul kilib olish asossiz ravishda rad etilishi natijasida etkazilgan zararni qoplanishini talab qilish;

3.3. ***«Buyurtmachi»***ning majburiyatlari

Tasdiqlangan talablar bo'yicha bajarilgan ishlarni qabul qilib olish;

Bajarilgan ishlar uchun o'z vaqtida xaq to'lash;

3.4. ***«Buyurtmachi»***ning xuquqlari

«Pudratchidan»dan amaldagi davlat standartlari va boshqa me'yoriy xujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;

Kamchiliklarni bepul bartaraf etilishi yoki kamchiliklarni boshqa shaxs tomonidan to'g'rilanishi xarajatlarini qoplanishini talab qilish;

«***Pudratchi***»dan shartnomada kursatilgan bajarilgan ishlarni qabul qilish komissiyasi ishtirokida sifatini kurib olish;

«***Pudratchi***» tomonidan bajarilgan ishlarni shartnoma shartlariga va ish xujjatlariga muvofikligini nazorat qilish.

## IV. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

4.1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatini bajarmasa yoki zarur darajada bajarmasa majburiyatni bajarmagan tomon ikkinchi tomonga etkazilgan zararni to'laydi;

4.2. «***Pudratchi***» ishlarni o'z vaqtida topshirmaganligi uchun «Buyurtmachi»ga xar bir kechiktirilgan kun uchun shartnoma majburiyatlari bajarilmagan qismining 0,5 % miqdorida penya to'laydi. To'lanadigan penya summasi bajarilmagan majburiyatlar bahosining 50 % idan oshmasligi kerak.

4.3. Aniqlangan nuqson va kamchiliklar «***Pudratchi***» tomonidan o'z vaqtida bartaraf qilinmasa "Buyurtmachi" tomonidan to'lovlar to'xtatiladi. Lozim darajada bajarilmagan ishlarning 20 % i miqdorida «***Pudratchi***» jarima to'laydi.

4.4. Bajarilgan ishlar uchun «Buyurtmachi» tomonidan o'z vaqtida xaq to'lanmasa, xar bir kechiktirilgan kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 %i miqdorida penya to'laydi. To'lanadigan penyalarning umumiy summasi kechiktirilgan to'lovlarning 50 %i miqdoridan ortmasligi kerak.

4.5. To'lanadigan penya va jarimalar shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni ikkinchi tarafga ana shu majburiyatlarni bajarmaslik oqibatida etkazilgan zararni qoplash javobgarligidan ozod etmaydi.

## V. FORS MAJOR XOLATLAR

5.1 Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni to'liq yoki qisman bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa engib bo'lmaydigan kuch xolatlari natijasida kelib chiqsa va bu xolatlar shartnoma shartlarini bajarilishiga bevosita ta'sir etsa tomonlarning javobgarlikdan ozod etilishi Qonun xujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

## VI. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH, BEKOR QILISH VA NIZOLARNI XAL QILISH TARTIBI

6.1. Mazkur shartnoma belgilangan shaklda tomonlarning o'zaro kelishuviga muvofiq o'zgartirilishi va bekor qilinishi mumkin.

6.2. Mazkur shartnoma bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizo va kelishmovchiliklar o'zaro muxokama yo'llari bilan xal etiladi. Agarda o'zaro muxokama yo'li bilan xal etish imkoni bo'lmasa Qonun xujjatlarida belgilangan tartibda Iqtisodiy sud orqali xal etiladi.

## VII. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATLARI

7.1. SHartnoma tomonlar imzolab, xududiy G'aznachilik bo'limida ro'yxatga olingan kundan kuchga kirib, «31»dekabr 2022 yilgacha amal qiladi.

7.2. SHartnoma 2 nusxada tuzilib, ikkala nusxasi ham xuquqiy jixatdan teng kuchli hisoblanadi.

## VIII. KORRUPSIYAGA QARSHI SHART

Tomonlar:

8.1.Tomonlar, ularning affilangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari, ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishlari davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablarining buzilishiga

olib keladigan va/yoki korrupsiya xarakteriga ega boʻlgan, shu jumladan (ammo bu bilan cheklanmay) pora berish yoki berishni va'da qilish, ta'magirlik, pora olishga bevosita yoki bilvosita rozi boʻlish xatti- harakatlari/harakatsizliklarini sodir etmaydilar.

-8.2.Tomonlar, ularning affilangan (oʻzaro bogʻlangan) shaxslari va xodimlari boshqa tomonning xodimlari yoki vakolatlangan vakillarini qandaydir tarzda ragʻbatlantirishdan, shu jumladan pul summalari, sovgʻalarni taqdim etish, ularning manziliga xizmatlarni begʻaraz koʻrsatish yoki bu xodim yoki vakolatlangan vakil tomonidan uni ragʻbatlantiruvchi Tomon foydasiga qandaydir xatti- harakatlarni/harakatsizliklar bajarilishini ta'minlashga qaratilgan ishlarni bajarishdan voz kechadilar deb ma'lum qiladilar.

8.3.Tomonda ushbu Shartnomaning talablarni buzish sodir etilganligi yoki sodir etilishi mumkinligi toʻgʻrisidagi shubhalar yuzaga kelgan holda, tegishli Tomon bu haqda ikkinchi Tomonni xabardor qilish, korrupsiya bilan kurashish sohasidagi Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining normalari buzilganligi faktining rad etib boʻlmaydigan dalillari mavjud boʻlgan holda esa amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatlangan organlarni ham xabardor qilish majburiyatini oʻz zimmasiga oladi

## VIII. TOMONLARNING REKVIZITLARI

| *"Pudratchi"* | *"Buyurtmachi"* |
|---|---|
| **«Uchkuprik Yangi kurilish» MCHJ** | **Beshariq tumani Obodonlashtirish boshqarmasi** |
| Fargona viloyati Fargona sh | Beshariq shahri Oltin Vodiy ko`chasi №114 uy |
| x/r 20208000504742266001<br>INN 301005624 MFO 00973 | x/r 401722860302157065200110007<br>INN 206994051 MFO 00014 |
| OKOD 4990<br>ATB Universalbank Kukon filiali | OKOD 92930<br>Markaziy bank Toshkent XKKMM |
| **Raxbar :** **I.Ortikov** | **Boshliq :** **N. Nasipov** |

OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI FARGʻONA SHAHAR MASʼULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI UCHKOʻPRIK YANGI QURILISH

| | |
|---|---|
| Hujjat **elektron raqamli imzo** orqali imzolangan.<br>Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun **QR Code** ni skanerlang. | |
| Imzolovchi F.I.SH. | NOSIRJON NASIPOV QOSIMOVICH |
| Imzolangan sana | 31 авг 2022 15:46 |
| Hujjat kodi | **EQ0574212285** |
| Hulosa kodi | **JY2551861772** |

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
FARG'ONA VILOYAT ADLIYA BOSHQARMASI
BESHARIQ TUMAN ADLIYA BO'LIMI
YURIDIK XIZMAT KO'RSATISH MARKAZI
150300, Beshariq tumani, Oltin vodiy ko'chasi, 46-uy
Tel.:(998 73) 612-21-19, el. pochta: beshariq-t-yurmarkaz@adliya.uz

**31.08.2022 yil**

**Beshariq tuman**
**Obodonlashtirish boshqarmasiga**

**XULOSA**
*(Obodonlashtirish boshqarmasining*
*41605-shartnoma loyihasiga)*

**1.Loyihaning turi:** Shartnoma.

**2.Loyhaning nomi:** "Pudrat to'g'risidagi" shartnoma.

**3.Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:** Beshariq tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 2022 yil 30 avgust kuni ishlab chiqilib, shu kuni markazga taqdim qilingan.

**4.Loyiha bo'yicha taklif:** Beshariq tuman Obodonlashtirish boshqarmasi hamda "Uchko'prik Yangi qurilish" MCHJ o'rtasida "Fargona viloyati Beshariq tumani Kapayangi MFY xududida yangi suv tarmogi tortish, 2ta suv kudugi suvini chiqarib tashlash, 2 ta suv nasosi va 2ta suv minorasi o`rnatish to'g'risidagi (qiymati QQS bilan) 430 000 000 (To'rt yuz o`ttiz million ) so'mlik shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilikka muvofiqligi mazmunan o'rganib chiqildi.

Shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 29 avgustdagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyayining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuning 10-moddasi (Xo'jalik shartnomasiga nisbatan qo'yiladigan talablar)ga muvofiq ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 684-sonli Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018 yil 26 mayda №3016-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi" nizom va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 02-iyuldagi PQ-5171-sonli Davlat xaridlari shaffofligini ta'minlash va samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi qarorini ijrosini ta'minlash maqsadida Respublika Tovar hom-ashyo birjasining xarid.uz saytidagi boshqarmaning shaxsiy kabineti orqali № 141013-lot raqami bilan e'lon jo'ylashtirilgan.

Shartnoma loyihasiga, Beshariq tuman Obodonlashtirish boshqarmasining 2022 yil 29 avgust kungi ajratilgan mablag'lardan oqilona va samarali foydalanish hamda tovarlar, ish, xizmatlarni bajarish maqsadidagi tanlov komissiyasining yigilish bayoni, № 141013-lot raqamli e'lon bo'yicha takliflar, bajaruvchilarning

tadbirkorlik Guvohnoma-litsensiyasi, Farg'ona viloyati Beshariq tumani hokimining 2022 yil 22-iyun kungi №138-11-153-Q/22-sonli qaroriga o'zgartirish va qo'shimchlar kiritish to'g'risida 153-11-153-Q/22-sonli qarori ilova qilingan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan oʻtkazish natijalariga koʻra:

**XULOSA**

Beshariq tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan № 41605-sonli shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilikka muvofiq.

**Markaz Bosh yuriskonsulti:** **A.Farmonov**

“ТАСДИҚЛАЙМАН”
Бешариқ тумани
Ободонлаштириш бошкармаси
бошлиғи
(комиссия раиси)
_____________ Н.Насипов

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар махкамасининг 2022 йил 20 майдаги Давлат харидларини амалга ошириш билан боғлиқ тартиб-таомилларни ташкил этиш ва ўтказиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақидаги қарори ва Давлат харидлари тўғрисидаги қонуннинг 62-моддасининг 7-хатбошисига кўра Бешариқ тумани Ободонлаштириш бошкармаси томонидан **“Фаргона вилояти Бешарик тумани Капаянги МФЙ худудида янги сув тармоги тортиш, 2та сув кудуги сувини чикариб ташлаш, 2 та сув насоси ва 2та сув минораси урнатиш ишлари”** буйича 22110012141013-сонли лот юзасидан танлов комиссиясининг мухокама натижалари тугрисида

**14-СОНЛИ МАЖЛИС БАЁНИ**

2022 йил 05 август соат 14:49 Бешариқ шаҳри

Танлов комиссияси иштирокчилари:

| | | |
|---|---|---|
| Комиссия раиси: | Рахбар | Н. Насипов |
| Комиссия котиби: | Бош хисобчи | Б. Пирназаров |
| Комиссия аъзоси: | Техника хафвсизлиги мухандиси | Х. Дадабоев |
| Комиссия аъзоси: | Йул техниги | А. Пулатов |
| Комиссия аъзоси: | Омбор мудири | Д. Фаттоев |
| Комиссия аъзоси: | Булим бошлиги | Л. Юсуфжонов |

**Йигилиш кун тартибидаги масала:**

**“Фаргона вилояти Бешарик тумани Капаянги МФЙ худудида янги сув тармоги тортиш, 2та сув кудуги сувини чикариб ташлаш, 2 та сув насоси ва 2та сув минораси урнатиш ишлари”** объекти буйича УзРТСБ Etender.uzex.uz порталида 22.08.2022й. 12:09 дан 29.08.2022й. 13:54 гача бўлган вақтда жойлаштирилган. Танловда 2 (икки) нафар иштирокчи қатнашди булар:

1. Uchko`prik Yangi Qurilish MCHJ ;
2. SHERXON INVEST QURILISH ONE MCHJ

29.08.2022 йил соат 13:54 да танлов комиссияси аъзолари томонидан Uchko`prik Yangi Qurilish MCHJ ғолиб деб топилди ва бу хакда электрон баённома расмийлаштирилди хамда шу вактда 2 иш кунига мухокамага жойлаштирилди. Шу 2 иш куни давомида хеч қандай эътирозлар келиб тушмади ва махсус комиссия қарори буйича голиб билан шартнома тузишга қарор қилинди.

| | | |
|---|---|---|
| Комиссия раиси: | ______________ | Н. Насипов |
| Комиссия аъзоси: | ______________ | Х. Дадабоев |
| Комиссия аъзоси: | ______________ | А. Пулатов |
| Комиссия аъзоси: | ______________ | Д. Фаттоев |
| Комиссия аъзоси: | ______________ | Л. Юсуфжонов |

"ТАСДИҚЛАЙМАН"
Халқ депутатлари туман Кенгаши раиси
Р.Жўраев

**Бешариқ тумани бўйича 2022 йил "Ташаббусли бюджет" жараёнининг 1-босқичи натижаларига асосан жамоатчлик фикри асосида шаклланган тадбирларнри молиялаштириш бўйича**

**МАНЗИЛЛИ РЎЙХАТ**

| № | Ғолиб таклиф маълумотлари | | | | | Шундан | | | Буюртмачи этиб белгиланган ташкилот |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Таклиф ID рақами | Қисқача мазмуни | Тўплаган овозлари сони | Амалга оширишнинг аниқланган қиймати | Ҳақиқатда жами ажратилган маблағ | Фуқаролар ташаббуси жамғармаси | Маҳаллий бюджетнинг қўшимча манбаалари ҳисобидан | Бюджет параметри доирасида | |
| | | Бешариқ тумани жами | | 6,004,000 | 6,004,000 | 6,004,000 | 0 | 0 | |
| 1 | 1340400019 | Навбахор МФЙ Навбахор кўчаси ва Истикбол кўчаларини 1.0 км масофаларда асфальтлаштириш | 8457 | 400,000 | 400,000 | 400,000 | | | Туман ободонлаштириш бошқармаси |
| 2 | 1340400014 | Капаянги МФЙ худудига 10 км масофага ичимлик суви тортиш 2 дона сув дона сув насоси ўрнатиш ва 2 дона сув минораси ўрнатиш | 8348 | 480,000 | 480,000 | 480,000 | | | Туман ободонлаштириш бошқармаси |
| 3 | 1340400020 | Навбахор МФЙ худудида Нурабод 1 та ичимлик суви қудуги қазиш 1та сув минораси ўрнатиш. Нуробод, Янги Нуробод, Навбахор ва Истиқбол кўчаларига 7 км ичимлик суви тармогини тортиш | 8306 | 500,000 | 500,000 | 500,000 | | | Туман ободонлаштириш бошқармаси |
| 4 | 1340400016 | Чорбогтўронғи МФЙ худудидаги Нур кўчасини 1.5 км масофани шаҳаллаштириш 1 км масофани асфалтлаштириш | 8210 | 480,000 | 480,000 | 480,000 | | | Туман ободонлаштириш бошқармаси |
| 5 | 1340400024 | Adolat MFY 1ta suv qudugini kavlash 1 ta suv minorasini ornatish 1 TP ornatish 8 km ichimlik suvi tarmogi tortish | 7811 | 540,000 | 540,000 | 540,000 | | | Туман ободонлаштириш бошқармаси |
| 6 | 1340400022 | Дўстлик МФЙ Файз кўчаси 0.5 км ички йўлларини асфаллаштириш 1 км масофани шағаллаштириш | 7633 | 400,000 | 400,000 | 400,000 | | | Туман ободонлаштириш бошқармаси |

| № | Ғолиб таклиф маълумотлари | | | Амалга оширишнинг аниқланган қиймати | Ҳақиқатда жами ажратилган маблағ | Шундан | | | Буюртмачи этиб белгиланган ташкилот |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Таклиф ID рақами | Қисқача мазмуни | Тўплаган овозлари сони | | | Фуқаролар ташаббуси жамғармаси | Маҳаллий бюджетнинг қўшимча манбаалари ҳисобидан | Бюджет параметри доирасида | |
| 7 | 1340400035 | Yuqori Tovul MFYga ichimlik suvi bilan taminlash uchun 1 quduq qazish, suv minorasi ornatish va tarmoq tortish TP ornatish va nasoz ornatish ishlarini amalga oshirish uchun amaliy yordam berishingizni sorayman | 7323 | 544,000 | 544,000 | 544,000 | | | Туман ободонлаштириш бошқармаси |
| 8 | 1340400018 | Бахмал МФЙ худудига 1та янги сув минораси ўрнатиш 7 км сув тармоги тортиш 1та сув насоси зрнатиш | 5750 | 280,000 | 280,000 | 280,000 | | | Туман ободонлаштириш бошқармаси |
| 9 | 1340400037 | Qum MFY Karmak qishlogida ichilik suvi muammoligi sababli suv minorasi qurish va tarmoq tortish ishlarini amalga oshirish zarurligi odamlar uzoq masofadan ichimlik suvi toshib ichishadi shunga amaliy yordam berishingizni sorayman | 5323 | 260,000 | 260,000 | 260,000 | | | Туман ободонлаштириш бошқармаси |
| 10 | 1340400026 | Қум МФЙ Кармак кишлогини Тараққиёт кўчасини 1 км масофани асфалтлаштириш зарур ушбу кўчада мактаб филиали жўйлашган бўлиб ёмгиргарчилик кунлари мактаб болларига бориб келиши қийинлашадаи | 5255 | 400,000 | 400,000 | 400,000 | | | Туман ободонлаштириш бошқармаси |
| 11 | 1340400025 | Узун МФЙга 1 дона сув насоси ўрнатиш, 1 дона сув минораси ўрнатиш, 1 та ТП ўрнатиш ва 7 км тармок тортиш ишларини амалга ошириш зарур шунда фуқароларга қулайлик яратилади хозирда узоқ масофалардан ичимлик суви тошиб ичиб келинмоқда | 5155 | 340,000 | 340,000 | 340,000 | | | Туман ободонлаштириш бошқармаси |
| 12 | 1340400003 | Beshkapa MFY Al-Fargoniy mahallasida yashovchi 100 ga yaqin xonadan istemol suviga qiynaladi . Agar shuni iloji bolsa muammoga yechim topilsa hamma xursand bolardi | 5090 | 400,000 | 400,000 | 400,000 | | | Туман ободонлаштириш бошқармаси |
| 13 | 1340400083 | Рапкон МФЙ Рапкон кишлоги Дустлик кучасидаги йуллар асфальт килиш | 3269 | 380,000 | 380,000 | 380,000 | | | Туман ободонлаштириш бошқармаси |

| № | Ғолиб таклиф маълумотлари | | | Амалга оширишнинг аниқланган қиймати | Ҳақиқатда жами ажратилган маблағ | Шундан | | | Буюртмачи этиб белгиланган ташкилот |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Таклиф ID рақами | Қисқача мазмуни | Тўплаган овозлари сони | | | Фуқаролар ташаббуси жамғармаси | Маҳаллий бюджетнинг қўшимча манбаалари хисобидан | Бюджет параметри доирасида | |
| 14 | 1340400038 | Dehqonto'da MFY Hovuzbo'yi ko'chasining elektr simyog'ochlarini va potstansiyasini yangilash | 2783 | 300,000 | 300,000 | 300,000 | | | Туман ободонлаштириш бошқармаси |
| 15 | 1340400034 | Beshariq tumanidagi Yangi Qashqar mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi O'zbekiston ko'chasida 150 nafarga yaqin xonadonda 700 nafardan ortiq fuqarolar istiqomat qiladi. Ushbu ko'chalar tashkil bo'lganiga 50-55 yil bo'lgan bo'lsada biror marotaba tamirlanmagan hamda asfaltlanmagan. Ushbu ko'chalar yomg'irli kunlarda loy, quyoshli kunlarda qumli bo'lib mahalliy aholiga bir qancha noqulayliklar tug'dirmoqda. Ushbu ko'chalarni asfaltlash lozim bo'ladi. | 2243 | 300,000 | 300,000 | 300,000 | | | Туман ободонлаштириш бошқармаси |

**Бешариқ тумани ҳокимлиги молия-иқтисодиёт ва камбаағалликни қисқартириш масалалари бўйича биринчи ўринбосари:** **Т.Саматов**

**Бешариқ тумани ҳокимининг ўринбосари:** **И.Эшматов**

**Бешариқ тумани ҳокимлиги молия бўлими мудири ввб:** **Х.Исроилов**

**Бешариқ тумани Ободонлаштириш бошқармаси бошлиғи:** **Н.Насипов**